
YOSHLAR BILAN UCHRASHUV VA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Rishton tuman hokimi va tegishli mutasaddilar tomonidan Dahbed MFYda bo'lib o'tgan yoshlar bilan uchrashuv va sayyor qabulda fuqarolarning har bir murojaati alohida nazoratga olinib, ularni hal etish choralari ko'rildi.

Xususan fuqarolarning uy-joy, moddiy yordam, kredit masalalari bilan bog'liq murojaatlari ijrosi yuzasidan tegishli rahbarlarga topshiriqlar berildi.

Sayyor qabulda mutasaddi tashkilot rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'ini raisi va o'rinbosarlari hamda 15 nafarga yaqin fuqarolar qatnashdilar.

E'tiborlisi, mahalla aholisi ishtirok etgan sayyor qabulda aholi shu yerning o'zida murojaatlariga ijobiy javob olishga va muammolarini bartaraf etishga muvaffaq bo'lishdi.

2022-09-08 09:19:35